

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.01.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SUYUNOVA MAFTUNA DO'SQOBIL QIZI

AMERIKA VA O'ZBEK NASRIDA URUSH OBRAZINING BADIY TALQINI
(N.MEYLER VA SHUHRAT ASARLARI MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
philological sciences**

Suyunova Maftuna Do'sqobil qizi

Amerika va o'zbek nasrida urush obrazining badiiy talqini (N.Meyler
va Shuhrat asarlari misolida)..... 3

Suyunova Maftuna Do'sqobil qizi

Literary interpretation of the war image in American and Uzbek prose
(on the basis of N.Mailer and Shuhrat's works)
..... 26

Суюнова Мафтуна Дусқобил кизи

Художественная интерпретация образа войны в американской и
узбекской прозе (на примере произведений Н.Мейлера и
Шухрата) ... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 54

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.01.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SUYUNOVA MAFTUNA DO'SQOBIL QIZI

AMERIKA VA O'ZBEK NASRIDA URUSH OBRAZINING BADIY TALQINI
(N.MEYLER VA SHUHRAT ASARLARI MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.1.PhD/Fil4409 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nuu.md.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Umarova Maxliyo Yunusovna filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Pardayeva Zulfiya Jurayevna filologiya fanlari doktori (DSc), professor Kasimova Ra'no Raxmatulloyevna filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.01.11 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "5" may soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Farobiy ko'chasi, 400-uy. Tel.: (+99871) 246-08- 62; (+99871) 227-10-59; faks (+99871) 246-65-21; e-mail: nauka@nuu.uz O'zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti, (3-qavat, 3-11-xona).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (84 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "22" aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil "22" apreldagi 9-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.A.Siddikova

Ilmiy darajalar berish bo'yicha ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.G'.Rabiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.E.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida urush obrazini tadqiq etish muhim ilmiy muammo bo'lib kelgan. So'nggi yillarda urush muammosini o'rganishdagi asosiy yondashuvlar qahramonlikdan insoniy xotira, ruhiy jarohatlar, ma'naviy-axloqiy dilemmalar va noinsoniy tizimlarning badiiy tahlili tomonga qarab siljimoqda. Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida davom etayotgan qurolli to'qnashuvlar va mojarolar adabiyotning urush fojialarini insoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan aks ettirishdagi ahamiyatini oshirmoqda. Ushbu tadqiqot, aynan, amerikalik adib Norman Meyler va o'zbek yozuvchisi Shuhrat asarlaridagi urush obrazi poetikasini insoniyatning urush sharoitidagi murakkab ruhiy-ijtimoiy holatini badiiy tasvirlash mexanizmlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishi bilan dolzarblik kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida urush obrazining badiiy talqinlarini solishtirish adabiyotning universal va milliy xususiyatlarini ochib beradi. Urushni syujet mavzusi sifatida emas, balki butun badiiy asar kompozitsiyasini shakllantiruvchi murakkab obraz sifatida o'rganish uning ijtimoiy, psixologik va falsafiy jihatdan tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi. Urush va uning oqibatlari ilmiy izlanishlar mavzusiga ko'p bora aylanganiga qaramasdan N.Meyler hamda Shuhrat harbiy prozasidagi urush obrazining badiiy tasviridagi o'xshashlik va farqlar, qahramonlarning ma'naviy-axloqiy dilemmasi va psixologiyasini tasvirlash usullari, harbiy mavzularning diaxronik qabul qilinishi va talqinidagi o'zaro bog'liqliklar kabi jihatlar bo'yicha tizimli qiyosiy tahlil yetarli emas. Ushbu tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, qiyosiy adabiyotshunoslik uchun amaliy va nazariy jihatdan ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ilm-ma'rifat, madaniyat, san'at, adabiyotni rivojlantirish, yosh avlodni tinchlik va insonparvarlik g'oyalariga sadoqat bilan tarbiyalash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Insonlar turli agressiv kontent va manipulyatsiyalar ta'sirida qolayotgan bugungi globallashuv zamonida urushning dahshatli haqiqatini ko'rsatadigan, tinchlik va gumanizmni targ'ib qiluvchi badiiy asarlarni qiyosiy jihatdan o'rganishning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati katta. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Bashariyat tarixidagi eng dahshatli qirg'in bo'lgan Ikkinchi jahon urushi dunyo xalqlari, jumladan, el-yurtimiz boshiga solgan og'ir musibatlar, mislsiz kulfat va yo'qotishlar hech qachon unutilmaydi"¹. Xalqaro maydonda munosib o'rin egallashga intilayotgan yurtimizda, yer sayyorasida tinchlikni oliy ne'mat deb biluvchi insonni tarbiyalashda urushning mohiyatini ochib beruvchi N.Meyler va Shuhrat asarlarini tadqiq etishilishi shu jihatdan juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, XX asr Amerika va o'zbek harbiy prozasi tizimli ravishda

¹ Mirziyoyev Sh. O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi // <https://president.uz/uz/lists/view/8117>. [Murojaat sanasi: 8.05.2025].

qiyosiy o'rganilmagan hamda o'zaro ta'sir, parallellar va farqlarining qiyosiy tahlili yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot ikki xil dunyoqarashga mansub ijodkorlarning umuminsoniy mavzuga munosabatini aniqlashi, urush fojialarini badiiy aks ettirishi, N.Meyler va Shuhrat asarlaridagi urush obrazi atrofida shakllanuvchi asar kompozitsiyasi, ijodkor uslubi va mahoratini yangicha rakursda o'rganishi bilan qiyosiy adabiyotshunosligidagi tadqiqotlar ro'yxatini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi 5117-son Prezident qarori "O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabrdagi "Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak" mavzusidagi ma'ruzasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon va o'zbek adabiyotshunosligida Ikkinchi jahon urushi haqida yozilgan asarlar ko'p Bu asarlarda urush obrazi, ularning o'ziga xosligi, qahramonlarning ichki dunyosi va ruhiyati tahliliga bag'ishlangan ko'plab maqola hamda tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, urush mavzusi va obrazining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida hamda N.Meyler asarlari to'g'risida jahon adabiyotshunoslari A.Huebner, I.Higgins, E.Beker, U.Uorren, P.Lister, L.Kembell, M.Mekey, J.Deves, J.Lenon², rus adabiyotida A.N.Nikolyukin, A.S.Mulyarchik, Y.N.Zasurskiy,

² Huebner A. The Warrior Image Soldiers in American Culture from the Second World War to the Vietnam Era. – USA: The University of North Carolina Press, 2011. – 371 p.; Higgins I. The Second World War in 6

I.M.Morozov, T.N.Kubaryeva, Ye.Chernetsova, O.Nesmelova, I.Galinskaya, E.Muratova³ kabi olimlar ish olib borgan. Shuningdek, XX asr o'zbek adabiyoti namoyondasi G'.Alimov (Shuhrat) hayoti va ijodi va ikkinchi jahon urushi adabiyoti muammosi J.Kamol, M.Shayxzoda, U.Normatov, S.Ahmad, N.Soatova, N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, A.Rasulov, S.Mirzayev⁴ kabi o'zbek adabiyotshunoslari tomonidan o'rganilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Xorijiy til va adabiyoti kafedrasining "Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari, badiiy tahlil, usul va tamoyillari" ustuvor ilmiy yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi N.Meylarning "The Naked and The Dead" va Shuhratning "Shinelli yillar" romanlari tahlili orqali Amerika hamda o'zbek nasrida urush obrazini shakllantirishning badiiy va struktur mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

badiiy asar poetikasida obraz tushunchasining evolyutsiyasi va nazariy asoslarini tadqiq etish, urush obrazining psixologik, axloqiy va ijtimoiy talqinini qiyosiy tarzda ochib berish;

XX asr jahon adabiyotida urush obrazining ifodalanish usullari va estetik yondashuvlarini tahlil qilish;

literature: eight essays. – Edinburgh: Scottish Academic Press, 1986. – 148 p.; Baker E. Nazism, the Second World War and the Holocaust in contemporary Latin American fiction. – UK: Cambridge University Press, 2022. – 193 p.; Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы. – М., 1978. – 328 с.; Lister P. Thesis, Dissertation, Kansas State University. – England, 1974. – 240 p.; Campbell L. Thesis, Dissertation, English, University of British Columbia, 1975 – 160 p.; Mackay M. The Cambridge companion to the literature of World War II. – N.Y.: Cambridge University Press, 2009. – P.56-67.; Dawes J. The language of war: literature and culture in the U.S. from the Civil War Through World War II. – USA: Harvard university press, 2002. – 321 p.; Lennon M. Conversations with Norman Mailer. – USA: University press of Mississippi, 1988. – 432 p.

³ Николюкин А.Н. Реализм и модернизм в творчестве Нормана Мейлера // Проблемы литературы США XX века. – М.: Наука, 1970. – С. 30-37.; Мулярчик А.С. В погоне за бегущим временем (романы Нормана Мейлера) // Вопросы литературы. – М., 1978. – С. 128-165.; Засурский Я.Н. Американская литература XX века. – М.: МГУ, 1966. – 356 с.; Морозов И.В. Тема Второй Мировой войны в творчестве Ж.П.Сартра: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2021. – 145 с.; Кубарева Н.Т. Антифашистский роман США 1941 – 1945 гг.: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1974. – 23 с.; Чсрнецова Е.В. Романное творчество Н.Мейлера 1980-х – 2000-х годов: социокультурный контекст, проблематика, поэтика: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казан, 2010. – 22 с.; Несмелова О.О. Публицистическое творчество Нормана Мейлера и традиции американской документалистики: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1982. – 18 с.; Галинская И.Л. Документальная проза Нормана Мейлера и магический мир романов Джоан Роулинг. – М.: Серебряные нити, 2013. – 224 с.; Муратова Э.Д. Война и мир Жеймса Жонса. – Т.: Тафккур қаноти, 2012.

⁴ Kamol J. Shuhrat she'ringing uslubiy xususiyatlari / Lirik she'riyat. – T.: Fan, 1986. – 100 b.; Shayxzoda M. Asarlar 6 tomlik 5 tom. Adabiy tanqidiy maqolalar. – T.: Adabiyot va san'at, 1973. – B. 147-157; Normatov U. Shuhrat. – T.: G'.G'ulom, 1969. – 120 b.; Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007. – 60 b.; Ahmad S. Uch mungli qo'shiq so'ngsiz imtihon / Shuhrat. Adib hayotiga bir nazar. – T.: Sharq, 1998. – B. 99-101; Soatova N. Shuhrat ijodining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Monografiya. – T.: NESHINVESTPROM, 2023. – 200 b.; Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Rasulov A. XX asr ўzbek adabiyoti tarixi. – T.: Ўқитувчи, 1999. – 51 b.; Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. – 39 b.

N.Meyler va Shuhrat asarlarida urushning tarixiy hamda ijtimoiy ahamiyatini, inson hayoti va jamiyat bilan bog'liqligini dalillash;

har ikki muallif asarlarida urushning qahramon ruhiyatiga ko'rsatadigan ta'sirini psixologik va ekzistensial yondashuvlar asosida tadqiq etish.

Tadqiqot obyekti sifatida N.Meylarning "The Naked and The Dead" (Himoyasizlar va O'liklar) va Shuhrat (G'ulom Alimov)ning "Shinelli yillar" asarlarida urush obrazining tasvirlanishi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Amerika va o'zbek adabiyotlarida urush obrazining psixologik, axloqiy va ijtimoiy jihatlarini qiyoslash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, madaniy-tarixiy, biografik, germeneytik va badiiy asar tahlili usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

badiiy obrazning tarixiy taraqqiyotida shakllangan madaniy-tarixiy, falsafiy va struktur-semantik qatlamlari ilmiy-metodologik asosda tizimlashtirilib, "urush obrazi" kategoriyasi psixologik, axloqiy va ijtimoiy yo'nalishlardan tarkib topgan poetik strukturani boshqaruvchi model ekanligi dalillangan;

XX-asr jahon adabiyotida urush obrazining an'anaviy, realistik, modernistik va postmodernistik estetik paradigmalari shakllanishi qiyosiy-tipologik metod asosida tadqiq qilinib, Amerika va o'zbek nasrida urush obrazining badiiy-konseptual talqini turli poetik-estetik tamoyillar doirasida rivojlanganligi hamda ularning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari isbotlangan;

N.Meyler va Shuhrat asarlarida urushning inson hayoti, jamiyat va tarixda tutgan o'rni turli xil ijtimoiy-madaniy muhit doirasida tahlil qilinib, har ikki muallif konsepsiyasida urush hodisasi nafaqat muayyan tarixiy davr bilan chegaralangan harbiy to'qnashuv, balki inson ruhiyati, axloqiy tanlovlari va jamiyatning dinamik rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'p qatlamli murakkab hodisa ekanligi ilmiy dalillangan;

N.Meyler va Shuhrat asarlarida urushning qahramon ruhiyatiga ko'rsatadigan ta'siri psixologik hamda ekzistensial yondashuvlar asosida, inson ongidagi jarayonlar N.Meyler asarida ruhiy iztirob va ekzistensial inqiroz, Shuhrat asarida esa ma'naviy bardoshlilik va ruhiy barqarorlik modeli sifatida namoyon bo'lishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Milliy va xalqaro adabiy an'analarni qiyoslab o'rganish orqali Amerika hamda o'zbek nasrida urush obrazidagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlangan;

Urush obrazini tahlil qilish orqali zamonaviy adabiyotshunoslik metodologiyasi va badiiy asarlarni tahlil qilish yondashuvlari takomillashtirilgan;

Urush obrazining jamiyatdagi muammolar (axloqiy dilemma, insoniy tanazzul, ijtimoiy ziddiyatlar)ning qanday aks ettirilishini tushunishga yordam beruvchi masalalarga e'tibor qaratilgan;

N.Meyler va Shuhrat asarlarida urush obrazini yaratishda foydalanilgan

badiiy uslub hamda vositalar o'rganilib, mualliflarning ijodiy faoliyati keyingi tadqiqotchilarga adabiy-estetik manba vazifasini bajarishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. N.Meyler va Shuhrat asarlari aniq belgilangan mezonlarga ko'ra tanlangani, tadqiqotda asarlarning turli jihatlari (davr, ruhiyat, urush obrazining yaratilish usullari, personajlarning psixologik holati) keng qamrab olingani, qiyosiy-tipologik, biografik, psixoanalitik, qiyosiy-madaniy tahlil usullarining qo'llanilgani natijalar ishonchliligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati N.Meyler va Shuhrat asarlarida urush obrazining badiiy talqini, urushning inson ruhiyatiga ta'siri, personajlarning psixologik holati va jamiyatdagi o'рни, urushga munosabat va axloqiy dilemma motivlari kabi ilmiy-nazariy masalalarni o'rganish imkonini beradi. Shu bilan birga, asarlar orqali urush obrazining umumiy va milliy xususiyatlari, yozuvchilarning obraz yaratish mahorati hamda badiiy vositalardan foydalanish tartibi aniqlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati urush obrazini N.Meyler va Shuhrat asarlari misolida qiyosiy tahlil qilish orqali chiqarilgan xulosalardan adabiyotshunoslikka kirish, qiyosiy adabiyotshunoslik, Amerika va o'zbek adabiyoti tarixi, jahon adabiyoti va zamonaviy nasr fanlaridan darslik hamda qo'llanmalar yaratishda, shuningdek, XX asr Amerika va o'zbek nasrini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Amerika va o'zbek nasrida urush obrazining badiiy talqinini tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natijalar hamda xulosalar asosida:

Badiiy obraz tushunchasining rivojlanish jarayonida shakllangan madaniy-tarixiy, falsafiy va struktur-semantik ma'nolari ilmiy asosda tizimlashtirilib, urush obrazi tushunchasi kengaytirilgan holda, uning psixologik, axloqiy va ijtimoiy yo'nalishlardan tarkib topgan poetik strukturani boshqaruvchi model ekanligi, shuningdek, XX asr jahon adabiyotidagi urush obrazining an'anaviy, realistik, modernistik, postmodernistik bosqichlar bo'yicha shakllanishi qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganilib, urush obrazining badiiy talqini Amerika va o'zbek adabiyotida turli estetik tamoyillar asosida rivojlanganligi hamda ularning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari ilmiy tarzda asoslanganligiga doir xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Ma'daniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar muharririyati tomonidan tayyorlangan 2025-yil 25-avgust hamda sentyabr oylarida efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbek nasri", "Jahon adabiyoti" nomli eshittirishlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan ("O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 16-sentyabrdagi 05-09-1455-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar radioeshittirishlarning ilmiy ommabopligini va ularning ilmiy natijalarga asoslanganligini ta'minlashga xizmat qilgan;

N.Meyler va Shuhrat asarlarida urushning inson hayoti, jamiyat va tarix oldida tutgan o'рни turli xil ijtimoiy muhit misolida tahlil qilinib, har ikki muallifning qarashlari asosida urush nafaqat tarixning muayyan davriga oid

harbiy voqea, balki insonning ichki dunyosida kechadigan axloqiy tanlov, ruhiy sinov va ma'naviy mas'uliyat maydoni sifatida ko'rsatildi hamda urushning shaxs psixologiyasi, axloqi va jamiyat hayotiga ta'sir qiluvchi ko'p qatlamli murakkab hodisa ekani isbotlangani borasidagi xulosa hamda tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi faoliyatida, adabiy kechalarida, ijodkor yoshlar bilan uchrashuvlarida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 09-sentyabrdagi 01-03/357-sonli ma'lumotnomasi). Natijada yoshlar orasida kitobxonlikni rag'batlantirish, urush mavzusidagi badiiy asarlarni chuqur o'rganish, shuningdek, N.Meyler va Shuhratning obraz yaratish mahorati bo'yicha bilimlarni oshirishga erishilgan;

N.Meyler va Shuhrat asarlarida urushning qahramon ruhiyatiga ko'rsatadigan ta'siri psixologik (ichki monolog, ong oqimi, psixologik portret, ruhiy konflikt) hamda ekzistensial (mavjudlik, yolg'izlik, tanlov, qo'rquv, xavotir) yondashuvlar sintezi asosida qiyosiy tahlil qilinib, urushning inson ongidagi jarayonlari N.Meylerda ruhiy iltirib va ekzistensial inqiroz, Shuhratda esa ma'naviy bardoshlilik va ruhiy barqarorlik modeli sifatida namoyon bo'lishi, urush obrazining jamiyat xotirasini shakllantirishdagi badiiy funksiyasi Amerika (N.Meyler) va o'zbek (Shuhrat) adabiyoti misolida qiyosiy tarzda ochib berilib, har ikki adabiy maktabda urush obrazi milliy xotirani tiklash, tarixiy haqiqatni anglash va ma'naviy saboq berish vositasi sifatida qanday vazifa bajarishi haqida yangi qiyosiy-tipologik yondashuvlar ishlab chiqilganligiga oid xulosalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2023-2025-yillarda bajarilgan IL-27-4722022413-sonli "Qiyosiy adabiyotshunoslik" fanining "Komparativistika" elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihasida foydalanilgan (2025-yildagi 26-sentyabrdagi 04-04-1/5679-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu elektron platformasini boyitishda Amerika va o'zbek adabiyotida urush obrazining qiyosiy tahlilini o'rganuvchilarga yanada yoritish uchun xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalarining 3 ta xorijiy va 4 ta mahalliy miqyosidagi konferensiyasi to'plamlarida chop etilib, mazkur anjumanlarda ilmiy ma'ruzalar ko'rinishida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan respublika ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 148 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati

asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, qo'llanilgan metodlar, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalari bayon qilingan, erishilgan natijalarning ilmiy yangiligi ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotda joriy etish va foydalanish imkoniyatlari, nashr qilingan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotshunoslikda urush obrazining psixologik, axloqiy va ijtimoiy talqini”** deb nomlangan birinchi bobida adabiyotshunoslikda urush obrazini talqin etishga oid mavjud ilmiy-nazariy yondashuvlar umumlashtirilib, urush fenomenining psixologik, axloqiy va ijtimoiy qirralari badiiy tafakkur doirasida tahlil qilinadi hamda ushbu obrazning individual ong, ma'naviy-axloqiy tanlov va tarixiy-ijtimoiy jarayonlar bilan murakkab dialektik munosabatda shakllanishi ilmiy asosda ochib beriladi. Ushbu bobning birinchi fasli **“Badiiy asar poetikasida obraz tushunchasi evolyutsiyasi va nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda obraz tushunchasining nazariy-estetik asoslari, uning shakllanish tarixi va badiiy ijoddagi o'ziga xos o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Badiiy obrazga san'at va adabiyotning markaziy kategoriyasi sifatida qaralib, voqelikni estetik jihatdan qayta ifodalovchi murakkab badiiy hodisa sifatida talqin etiladi. Mazkur tadqiqotda badiiy urush obrazi tadqiqot predmeti sifatida olinib, unga mavzudan farqli ravishda butun badiiy tizimni birlashtiruvchi estetik-semantik model sifatida yondashildi. Obrazning falsafiy-estetik ildizlari qadim davrlarga borib taqaladi. Aristotel **“Poetika”** asarida obrazni nafaqat san'atning asosiy elementi, balki inson tajribasini tushunish va tizimlashtirishning muhim vositasi sifatida ko'rib chiqadi hamda badiiy obrazni **“mimesis”** – tabiat va hayotning ideal mohiyatini ochib beruvchi taqlid sifatida tushuntiradi⁵. G'arbiy Yevropa estetik tafakkurida obraz haqidagi qarashlarning rivojlanishida G.Gegelning **“Estetika”** asari hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. G.Gegel uchun badiiy obraz – bu ideya bilan uning material ko'rinishi o'rtasidagi to'liq moslik, g'oyaning o'zini moddiy shaklda ifodalanishi edi⁶. Rus adabiyotshunosligida V.Belinskiy obrazning falsafiy-estetik mohiyatini chuqur o'rgandi. U obrazni **“mavhum fikrning jonli va to'la ifodasi”** deya ta'riflab, uning konkretlik va tipiklik xususiyatlarini alohida ta'kidladi⁷. Obraz tushunchasi XX asr strukturalizm va semiotika (Bart⁸, Lotman⁹) hamda poststrukturalizm (Derrida¹⁰) qarashlari bilan zamonaviy metodologik kontekstda tahlil qilindi. Formal maktab vakillarining obraz borasidagi tadqiqotlari va Baxtinning

⁵ Аристотель. Поэтика. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 18.

⁶ Hegel G. Lectures on Aesthetics. – Oxford: Clarendon press, 1988. – P. 225.

⁷ Белинский В.Г. Взгляд на русскую литературу 1847 года // Полное собрание сочинений. Т. 10. – М.: АН СССР, 1956. – С. 307-308.

⁸ Barthes R. Rhetoric of the Image. In: Image, Music, Text. – London: Fontana Press, 1975. – P. 32-51.

⁹ Lotman J. The structure of the artistic text. – USA: English translation copyright by the University of Michigan, 1977. – P. 55-56.

¹⁰ Derrida J. Structure, Sign and Play in the Discourse of the Human Sciences in Writing and Difference, trans. Alan Bass. – London: Routledge, 2006. – P. 351-370.

dialogizm nazariyasi obrazning dinamik, ko'p ovozli tabiatini asoslab berdi. Rus olimi V.Xalizevning fikricha, "Obraz" atamasi qadimgi yunoncha "eydos" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u qiyofa, ko'rinish, shakl ma'nolarini anglatgan. Adabiyotshunoslikda esa "obraz" faqat tashqi qiyofa emas, balki badiiy umumlashma, hayot haqiqatining san'at orqali ifodasi sifatida tushuniladi. V.Xalizev "Теория литературы" asarida obrazni keng qamrovli kategoriya sifatida izohlaydi¹¹. Olimning fikricha, badiiy obraz voqelikning qayta tiklanishi emas, balki san'atkorning estetik tafakkuri orqali qayta yaratilgan, g'oyaviy-ma'naviy mazmunga ega timsoldir. V.Xalizev obrazni uch darajada ko'radi:

1) Individual obraz – konkret qahramon, masalan, Raskolnikov;

2) Tipik obraz – muayyan ijtimoiy qatlam yoki davrga xos xarakter (masalan, Tolstoy asarlarida davr tiplari);

3) Umuminsoniy obraz – abadiy ma'noga ega timsollar (masalan, Gamlet, Don Kixot). U obrazni faqat estetik timsol deb emas, balki ijtimoiy-mafkuraviy funksiyaga ega birlik deb ham qaraydi. V.Xalizevning yondashuvi obraz tushunchasini faqat tashqi ko'rinish emas, balki madaniy, g'oyaviy va psixologik ma'nolar qatlamiga ega tizim sifatida tushunishga yordam beradi. Uning nazariyasi shuni ko'rsatadiki, har bir obraz ortida ijtimoiy voqelik, insonning ma'naviy tajribasi va muallif pozitsiyasi mujassam bo'ladi. Bu qarash obrazni badiiy tafakkurning markaziy kategoriyasi sifatida ko'rsatadi va badiiy tahlilda uning ko'p qirrali mohiyatini ochish zaruratini belgilaydi. O'zbek adabiyotshunosligida badiiy obraz borasidagi yondashuvlar (A.Fitrat, A.Sa'diy, I.Sultonov, T.Rasulov, A.Ulug'ov, D.Quronov) esa terminologik aniqlik va tasnifiy mezonlarga asoslanadi. Shu asosda obraz – xarakter – personaj nisbatlari aniq farqlanib, obrazning predmetlilik va umumlashtirish darajalari (detal, voqea-hodisa, xarakter va sharoit, dunyo va taqdir; individual, tipik, umuminsoniy timsollar) amaliy tahlilda qo'llanadigan aniq kategoriyalarga aylantirildi. Akademik I.Sultonovning fikricha, "Badiiy asarda ozmi-ko'pmi tafsilot bilan tasvir etilgan personaj obraz yoki xarakter deb ataladi. Ko'pincha adabiyotshunoslar adabiyotning o'ziga xosligi obrazlilik deb hisoblaydilar. Bu – tor talqindir, chunki obrazlilik, umuman inson tafakkurining xususiyatidir (falsafada "obraz" terminidan foydalanish tasodifiy emas). Badiylik obrazlilikdan kengroq tushunchadir. Badiylik san'atning hamma turlarining, shu jumladan, adabiyotning eng muhim o'ziga xos xususiyatidir. Badiylik tushunchasiga obrazlilik kiradi, ammo badiylik faqat obrazlilikdan iborat emas. Adabiyotni badiiy qilgan narsa faqat obrazlilik bo'lmay, balki uning vazifalari, mazmuni va shakliga taalluqli ko'pgina xususiyatlardir"¹². Dissertatsiyada tadqiqot obyekti sifatida Norman Meylarning "The Naked and the Dead" hamda Shuhratning "Shinelli yillar" asarlari tanlanib, ularda urush mavzu emas, balki obraz tarzida tahlil etildi. Bu yondashuvda urush obrazi til-uslub, kompozitsiya, motiv va detallarning o'zaro aloqador qatlamlarida

¹¹ Хализев В.Е. Теория литературы. Учебник для студ. учреждений высш. проф. образования. – М.: Академия, 2013. – С. 137.

¹² Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б. 108.

markaziy tashkil qiluvchi kuch sifatida ko'rsatildi. Ishda qiyosiy-tipologik, biografik, hermenevtik, adabiy asar tahlil usullari uyg'un qo'llanib, tarixiy-kontekstual sharh bilan birga poetik tizimning ichki mexanizmlari ochib berildi. Avvalo, N.Meyler matnida harbiy jargon, buyruq ohangi va keskin metaforalar, Shuhrat prozasida esa xalq og'zaki ijodiga xos ifodalar, lirizm va majozlar tahlil qilindi. Natijada, urush obrazi matnning leksik va semantik markazini tashkil etuvchi asosiy unsur sifatida namoyon bo'ldi. N.Meylarning "The Naked and the Dead" romani kompozitsiyasida vaqtning parchalanganligi, ichki hamda tashqi monologlarning almashib turishi urushdagi tartibsizlik va ruhiy jarohatlarni badiiy shaklda o'ziga xos tarzda aks ettirganini ko'rsatadi. Shuhratning "Shinelli yillar" romani tuzilishida esa epizodlarning o'zaro bog'lanishi, xotira va uy sog'inchi atrofida to'plangan kompozitsion halqalar urush obrazini milliy xotira poetikasi bilan uyg'unlashtirgan xolda tasvirlanganini ko'rsatadi. Romanlarda qo'llanilgan motiv va detallar tizimida o'lim, jarohat, vijdon azobi, sadoqat va xiyonat, uy va ona obrazi, maktub, okop, qon dog'i kabi tushunchalar o'rganilib, ularning takrorlanish darajasi va ma'no qatlamlari aniqlandi. Natijada, urush obrazi alohida sahna yoki fon emas, balki qahramon ruhiyati va nutqidan tortib butun poetik kompozitsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi markaz ekanligi urg'ulab ko'rsatildi. Shu tariqa, birinchi bobda urush obrazi tushunchasi nazariy qarashlar asosida mustahkamlandi. Urush obrazi syujet, kompozitsiya, motiv va detallarni yagona tizimga bog'lovchi asosiy unsur sifatida tahlilga tortildi. Qiyosiy tahlillarda N.Meyler asarlarida urush obrazi ekzistensial parchalanish orqali, Shuhratda esa milliy xotira, axloqiy tanlov ifodasi sifatida ochib berildi. Urushning obraz sifatida talqini ikki adabiy an'ana kesishmasida inson psixologiyasi, tarixiy xotira va axloqiy dilemmalarni yagona estetik modelga aylantirish imkonini bergani, metodologik jihatdan esa qiyosiy poetika, psixologik, sotsiologik yondashuv sintezini samarali namoyon qilgani asoslandi. Bizning "Amerika va o'zbek adabiyotida urush obrazi (N.Meyler va Shuhrat asarlari misolida)" deb nomlangan tadqiqotimizda urush tushunchasi mavzu emas, obraz tarzida tanlab olindi. Adabiyotshunoslikda mavzu matn nima haqida ekani to'g'risida umumiy tushuncha va taassurotni bersa, obraz shu mazmunning badiiy shaklga aylangan, tasavvur va his qilish mumkin bo'lgan badiiy timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Demak, mavzu tushunchani ifoda etsa, obraz tuzilma va ifoda (til, kompozitsiya, motivlar, detallar) orqali gavdalanadigan ma'no tashuvchi shakldir. Shuning uchun urush faqat mavzu sifatida olish uning ma'no doirasini toraytiradi. Obraz bo'lganda esa u butun poetik strukturani boshqaradigan modelga aylanadi.

Shuningdek, mazkur bobning ***"XX asr jahon adabiyotida urush obrazining ifodalanish usullari va estetik yondashuvlar"*** nomli ikkinchi faslida XX asr jahon adabiyotida urush obrazining ifodalanish usullari va estetik yondashuvlar falsafa, madaniyatshunoslik, psixologiya va adabiyot nazariyasi kesishmasida kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Urush obrazi tor ma'nodagi adabiyotshunoslik doirasidan chiqarilib, insoniyat

madaniyatidagi universal fenomen sifatida talqin qilindi. Muammoga shu jihatdan yondashilgan tadqiqotlar orasida V.I.Gamovning “Образ войны в культуре”¹³ deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasini e’tirof etish mumkin. Muallif urushni insoniyat madaniyatida doimiy va universal hodisa sifatida ko’radi. XX asr misolida urushning antigumanistik va global oqibatlarini to’g’ri ta’kidlaydi. N.N.Gerasimov “Философский анализ образа войны в эпоху глобализации” tadqiqotida urushni nafaqat siyosiy yoki harbiy hodisa, balki ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida ko’rib chiqadi. Klassik va zamonaviy paradigmalarning qiyosiy tahlili orqali urush obrazi tushunchasi chuqurlashtiriladi hamda globalizatsiya sharoitida yangi falsafiy talqinlar taklif qilinadi. Klassik falsafadagi paradigmalar (Platon, Aristotel, Gegel) zamonaviy konsepsiyalar (psixanaliz, ekzistensializm, globalizatsiya davridagi urush) bilan qiyoslab ko’rib chiqildi va urush obrazining evolyutsion xususiyatlari aniqlandi. Adabiy oqimlar bo’yicha qiyosiy-nazariy tahlil amalga oshirildi. Romantizm yo’nalishida urush qahramonlik va milliy ruh sahnasi sifatida ko’rilgan bo’lsa, realizm hamda naturalizm esa bezaksiz haqiqat va ijtimoiy-ruhiy vayronkorlikning bevosita manzaralari sifatida ko’rsatilgani ta’kidlandi. Modernizm urush obrazi tashqi frontdan ko’ra, ichki ruhiy jarohatlar, chiziqsiz vaqt, ichki monolog va ramziylik fonida ifodalandi. Absurd poetikasida byurokratik mantiqsizlik va hayotning qadrsizlanishi markazga chiqarildi. Dekadens va simvolizm urush ko’pincha mif hamda arxetiplarga tayanib, usluban stilizatsiya qilingan va ichki (ruhiy) holat ifodasi sifatida tasvirlangan. G’arb va Sovet adabiyoti urush obraziga turli modelda yondashgan. G’arb va amerika yozuvchilarida (E.Remark, E.Heminguey, U.Folkner, J.Heller, K.Vonnegut) urush ko’proq shaxs degradatsiyasi, travma va yo’qotishlar orqali tasvirlangan bo’lsa, sovet adabiyotida sotsialistik realizm qoliplari doirasida vatanparvarlik, fidoyilik va birdamlik timsoli sifatida ko’rsatilgan. Fransuz adabiyotida (H.Barbyus, L.Aragon, A.Ekzyuperi, J.Jirodu) esa frontning achchiq tajribasi, qarshilik harakatlari va klassik miflar asosida urushga talqin berilgan. Dissertatsiyada shu asosda “Urush adabiyoti” tushunchasi aniqlandi. Unda badiiy-harbiy va hujjatli-harbiy asarlar farqlanib, asosiy motivlar – o’lim, jarohat, uy sog’inchi, vijdon azobi, sadoqat va xiyonat tushunchalari ajratib ko’rsatildi. “Yo’qotilgan avlod” fenomeni esa urushdan keyingi psixologik inqiroz va qadriyatlar o’zgarishi bilan bog’lab izohlandi.

Mazkur bobning uchinchi fasli ***“Amerika va o’zbek adabiyotida urush obrazining tarixiy ahamiyati”*** deb nomlanib, unda XX asr Amerika va o’zbek adabiyotida urush obrazining tarixiy-estetik funksiyasi qiyosiy-tipologik yondashuvda yoritildi. Manba bazasiga urushdan keyingi Amerika prozasi bo’yicha tadqiqot olib borgan olimlardan A.Mulyarchik, A.Gilenson, Ya.Zasurskiy tadqiqotlari, antifashistik adabiyot bo’yicha N.Kubaryeva, V.Devyakin, T.Motileva, I.Shablovskaya ishlari; badiiy adabiyot namunalardan N.Meyler, J.Jons, H.Vuk, J.Heller, K.Vonnegut, T.Pinchon romanlari hamda o’zbek adabiyotshunosligida U.O’ljaboyev, N.Karimov va hammualliflar,

¹³ <https://www.dissercat.com/content/obraz-voiny-v-kulture> [Murojat sanasi: 17.05.2024]

S.Mirzayev ishlari, shuningdek Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, M.Shayxzoda, Shuhrat, O'.Hoshimov asarlari kiritildi. Belgilangan asarlar tarixiy-qiyosiy nuqtayi nazardan tahlil qilinib, tadqiqot jarayonida qiyosiy poetika, obrazlar tizimini tahliliy modellashtirish va narrativ-kompozitsion yondashuvlar qo'llanildi. Amerika adabiyotida Ikkinchi jahon urushi yakunlari bilan bog'liq uch bosqich ajratib ko'rsatildi:

1) 1945-50-yillarda realizm/naturalizm doirasida kechgan "urush tajribasini hujjatlashtirish" tendensiyasi (Meyler, Jons, Vuk);

2) 1950-yillar – "konformizm asri" deb atalgan davrda jamiyatda axloqiy va psixologik muammolar kuchaygan, odamlar esa haqiqiy hayot muammolaridan qochish (eskapizm) kayfiyatiga berilishinig kuchayishi;

3) 1960-yillardan postmodern burilish – "qora yumor" va absurd poetikasi (Heller, Vonnegut, Pinchon) urushni tarixiy voqeadan ko'ra, zamonaviy sanoatlashgan jamiyatning uzluksiz metaforasiga aylantirdi. Ana o'sha reallikning badiiy ifodasi o'laroq xronologik hikoya, psixologik realizm va urush/fuqaro ziddiyatlari asosiy mavzuga aylandi. Postmodern usulda voqelikning fragmentatsiya, kinoyaviylik, "urush – doimiy holat" g'oyasi markazga chiqdi.

O'zbek adabiyotida Ulug' Vatan urushi deb atalgan 2-jahon urushi yillari urush diskursi sotsialistik realizm ramkasida safarbarlik, vatanparvarlik, birdamlik va fidoiylik axloqiy modeli sifatida shakllandi. She'riyat, dramaturgiya va nasrda ham front hamda front orti voqeligi keng yoritildi. Urushdan keyingi yillarda bu epik an'analar davom etgan holda, "iliqlik" davridan boshlab psixologik-fojiviy qatlam chuqurlashgani kuzatildi. Oybekning "Quyosh qoraymas", Shuhratning "Shinelli yillar", O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" kabi asarlarda urushning uzoq davom etuvchi ijtimoiy-axloqiy jihatlari, ruhiy jarohatlar, jamiyatdagi qutblanish va qadriyatlar sinovi badiiy ifodasini topgani kuzatildi. Adabiyotshunoslikda U.O'ljaboyev urush prozasida xarakter va tip masalasini, darslik hamda qo'llanmalarda (N.Karimov va boshq.) urush yillari adabiyotining janr-rivoj dinamikasi keng tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning **"Yozuvchi va urush: tarixiy haqiqatning badiiy talqini"** deb nomlangan ikkinchi bobida yozuvchining tarixiy urush voqealarini shaxsiy tajriba, estetik qarash va mafkuraviy pozitsiya asosida badiiy qayta talqin qilishi hamda tarixiy haqiqatning adabiy obrazga aylanish jarayoni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Mazkur bobning birinchi faslida **"N.Meyler asarlarida urush – insoniyatning axloqiy sinovi"** muammosi yoritiladi. Norman Meyler (1923-2007) – XX asr amerika adabiyotining bahsli, lekin ta'siri ulkan figurasi. U Garvardda muhandislik yo'nalishida o'qigan bo'lsa-da, badiiy ijod bilan tanildi. Urushga safarbar etilib (Filippin fronti), front tajribasini badiiy adabiyotga ko'chirdi. Birinchi romani "The Naked and the Dead" (1948) uning nomini birdan mashhur qildi. Asar jang maydonini nafaqat voqea, balki hokimiyat, bo'ysunish, qo'rquv va jasoratning psixologik mexanizmlari maydoni sifatida

ham ochib beradi. N.Meyler uchun urush “kim haq” degan sodda savoldan ko’ra “inson qanchalik erkin va nechog’lik mas’ul?” degan ekzistensial savolga aylanishi bilan muhimdir. 1950-60-yillardagi asarlari (masalan, “Barbary Shore”, “The Deer Park”, “An American Dream”) frontdan “ichki front”ga – jamiyat va shaxs o’rtasidagi ziddiyatlar tasviriga o’tadi. “Barbary Shore” dagi xotirasini yo’qotgan qahramon – urushdan keyingi Amerikadagi ma’naviy tushkunlikning badiiy metaforasidir. O’tmish ma’nosiz, bugungi kun esa mafkura va g’oyalar, davlat va shaxs manfaatlari to’qnashuvlariga to’la. Odam esa ular orasida o’z o’rnini izlaydi. Meyler urush obrazini tuzum qudrati va shaxs erkinligi o’rtasidagi doimiy kolliziya sifatida ko’rsatadi. Unda front geografiyasi o’zgarib urush axloqiy sinov maydoniga aylanadi. N.Meylarning ijodkorona o’ziga xos uslubi ham ayni masalaga xizmat qiladi. Meylarning urushga munosabatida asosiy qarash inson hayotini ommaviy yo’q qilishga yo’naltirilgan har qanday urush yomon, ayni paytda, urush sharoitida vatanparvarlik nomidan aqlni o’chirib qo’yish talabi alohida xavf ekani haqidagi fikrlar edi. Estetik jihatdan Meyler realistik tasvir usulidan ko’ra postmodern adabiyotiga xos fragmentar tarzda aks ettirish uslubida tasvirlaydi. “The Naked and the Dead”da realistik tasvir, ko’p ovozlilik va ruhiy olam xaritasi juda chuqur tasvirlanadi. Meyler “The White Negro” nomli essesinde “hipster” konsepsiyasi orqali urushdan keyingi avlodning ekzistensial ahvolini quyidagicha tasvirlaydi: atom asri qo’rquvi, konslagerlar xotirasi, “hozir va shu erda” g’oyasiga yopishib jon saqlayotgan urush avlodining falsafasini aks ettiradi. N.Meyler nazarda tutgan “hozirgi lahza etikasi” javobgarlikdan qochish emas, balki tizimning sovuq mexanizmlariga qarshi yashovchanlikni saqlash usuli sifatida talqin qilinadi. Meyler olamida estetika (go’zallik va san’at) hamda etika (axloq va erkinlik) bir-biridan ajralmas, o’zaro uyg’un jihatlar sifatida namoyon bo’ladi. Tanqidchilar uning urush mavzusidagi romanlarida ikki qatlamni ajratadilar: ko’rinadigan siyosiy tarix (jang, operatsiya, buyruq) va yashirin qatlam – ehtiros, zo’ravonlik, orzu va qo’rquv oqimlari ifodasi. Birinchisi faktlarni beradi, ikkinchisi yozuvchi ifodalamoqchi bo’lgan haqiqiy ma’noni. Meylarning nazdida agar jamiyat mexanizmi shafqatsiz bo’lsa, bu inson hayoti va tabiatini ham savol ostida qoldiradi. Meyler ijodi E.Xeminguey, Jon Dos Passos, U.Folkner, L.Tolstoy kabi ustozlar izidan borsa-da, u ulardan janr jihatidan ajralib turadi. Xulosa qilib aytganda, Meylerda urush tarixiy fon emas, axloqiy rezonator sifatida ko’rinadi.

2-bobning 2-fasli **“Shuhrat asarlarida urush – vatanparvarlikning badiiy modeli”** deb nomlangan. Unda o’zbek adabiyotining serqirra vakili, shoir, dramaturg va nasrnavis sifatida katta ijodiy meros qoldirgan Shuhrat (G’ulom Alimov, 1918-1987) ijodi tahlil etiladi. Shuhrat “Hayot nafasi”, “Qardoshlar” singari dastlabki asarlardan boshlab “Shinelli yillar”, “Oltin zanglamas” va “Jannat qidirganlar” romanlarigacha bo’lgan ijodiy yo’lda vatanparvarlik estetikasi hamda axloqiy idealini izchil shakllantirildi. Tadqiqot davomida Shuhrat uchun urush Ona Vatanni himoya qilishga undovchi axloqiy sinov ekani aniqlandi. Qahramonlik, sadoqat va birdamlik yozuvchining

qahramonlari timsolida markaziy qadriyatlarga aylanishi tahlil etildi. Urush manzarasi insonning vijdon va burchi o'rtasidagi tanlov maydoni sifatida tasvirlanadi. Shu asosda "Sen yonmasang..." tipidagi ijod namunalari orqali shaxsiy mas'uliyat umumiy burchga aylanagani ko'rsatildi. "Oltin zanglamas"dagi Sodiq obrazida jasorat nafaqat jang maydonidagi epizodlarda, balki qatag'on va tuhmat oldida ham e'tiqodni saqlashi ko'rinadi. "Guldursun" kabi balladalarda esa xiyonat illat sifatida talqin qilinadi. "Mardlik afsonasi", "Guldursun", "Raymonda", "Jamila" kabi asarlarda ayol jasorati, milliy g'urur va erkinlik motivlari vatanparvarlikni arxetip darajasiga ko'tardi. "Shinelli yillar"da xalq askarining tipik modeli yaratilgan bo'lsa, "Oltin zanglamas"da qatag'on davri insoniy e'tiqodning sinoviga aylangani ifodalandi. "Jannat qidirganlar"da esa haqiqiy jannat milliy mustaqillik va xalq xizmatida ekanligi badiiy tarzda ochib beriladi. Ijodkor uslubida realistik tasvir va romantik pafos uyg'unligi, dialogik lirik ohang, shinel, bayroq, maktub va ona duosi kabi ramzlarning muntazam qo'llanishi kuzatildi. Shuhrat front va xalq birdamligini, jasorat va fidoyilikni xalq xotirasini birlashtiruvchi timsollarga aylantirdi. Qiyosiy kontekstda qaralganda G'arb urush adabiyotida (Remark, Heller, Vonnegut) urush ko'proq parchalanish, absurd va iztirob prizmasida talqin etilgan bo'lsa, Shuhratda u ma'no va birlikni safarbar qiluvchi model sifatida tasvirlandi. Sotsialistik realizmning "kollektiv qahramon" konsepti uning poetikasida sezilsa-da, shaxsiy lirizm va samimiy ohang bu modelni insoniylashtirganini sezish mumkin.

2-bobning 3-fasli ***"N.Meyler va Shuhrat asarlarida o'ziga xos muallif uslubi: psixologizm hamda ekzistensializmning uyg'unligi"*** deb nomlanib, Norman Meyler va Shuhrat ijodini qiyosiy o'rganishda ularning o'ziga xos uslubi asosiy masala sifatida ko'rildi. Tadqiqot jarayonida, avvalo, adabiyotshunoslikda "uslub" tushunchasiga oid nazariy qarashlar umumlashtirildi: uslub yozuvchining voqelikni o'ziga xos idrok etishi, uni obrazlar, ifoda vositalari va kompozitsion qurilish orqali badiylashtirish jarayoni sifatida talqin qilindi. B.Lids o'zining Meyler haqidagi monografiyasida yozuvchini amerika ijtimoiy muhitining tanqidchisi sifatida tahlil etgan¹⁴ bo'lsa, R.Puarie esa Meyler asarlarida shakllanadigan ichki dramatik to'qnashuvlarni o'rganib, "turli ovozlarni" yoki "noorganik shaxsiyatlar" o'rtasidagi kurash motivining doimiy ishtirokini tahlil qiladi¹⁵. L.Adams Meylarning "The Armies of the Night" romanini hujjat va badiiyatni uyg'unlashtirgan "roman-nonfikshen" janrida baholadi. U yozuvchi ijodining ekzistensializm bilan aloqador jihatlarni yoritgan¹⁶. R.Merrill esa yozuvchini nafaqat adib, balki ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirokchi shaxs sifatida tahlil qildi¹⁷. Meylarning "The Naked and the Dead", "Tough Guys Don't Dance", "Harlot's Ghost" kabi romanlari misolida ekzistensializm va psixologizmning uyg'unligi ochib berildi. Ichki monologlar, tragikomizm, parodiya va birinchi

¹⁴ Leeds B. The Structured Vision of Norman Mailer. – N.Y.: PBS, 1969. – P. 270.

¹⁵ Poirier R. Mailer. – L., 1972. – P. 174.

¹⁶ Adams L. Existential Battles. The Growth of Norman Mailer. – Athens, 1976. – P. 102.

¹⁷ Merrill R. Norman Mailer revisited. – N.Y., 1992. – P. 247.

shaxs tilidan rivoya shakli orqali yozuvchi inson ruhiyatidagi ziddiyatlarni, jamiyat bosimi va shaxsiy erkinlik o'rtasidagi kurashni badiiy ifodalagan. N.Meyler ijodi zamonaviy insoniyatning eng dolzarb masalalari – o'zlik, erkinlik, ma'naviy izlanish va ruhiy kurashlarni markazga olib chiqadi. Uning uslubi chuqur psixologizm va ekzistensializmning badiiy sinteziga asoslangan. Uning asarlarida rivoyaning birinchi shaxs tilidan berish shakli faqatgina uslubiy vosita emas, balki falsafiy pozitsiya, ichki haqiqatning ifodasi, mavjudlik bilan yuzlashuvning badiiy shaklidir. Shu orqali u o'z davrining eng muhim masalalarini ochib beradi va adabiyot orqali zamonaviy insonlar dunyoqarashiga ta'sir o'tkazishga harakat qiladi. Meyler asarlaridagi bu jihatlarni o'zbek adibi Shuhratning nasriy asarlari bilan solishtirsak, har ikki adib ijodida urushdan keyingi insonning ruhiy holati, yolg'izlik, jamiyatda o'z o'rnini qidirish, mavjudlik to'g'risidagi savollarga javob izlash kabi mavzular uyg'unligiga guvoh bo'lamiz. Har ikki adib urush mavzusini badiiy-estetik izlanish markaziga olib kirgan, biroq Meyler uchun urush insoniy tafakkur va erkinlik inqirozi bo'lsa, Shuhrat uchun u fidoyilik va ma'naviy sobitlik timsoliga aylangan. Shunday asosda Meyler va Shuhrat asarlarida psixologizm hamda ekzistensializmning turlicha talqinlari o'rganildi. Meyler ijodida bu individualizm va ijtimoiy zo'ravonlik muammolari orqali, Shuhratda esa milliy ozodlik va vijdoniy tanlovlar orqali ifodalangan. Olingan natijalar qiyosiy adabiyotshunoslik va madaniy xotira tadqiqotlari uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qilishi isbotlandi.

Dissertatsiyaning **“N.Meyler va Shuhrat asarlarida urush obrazining murakkab mohiyati hamda uning inson hayotidagi o'rne”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida N.Meyler va Shuhrat asarlarida urush obrazining ko'p qatlamli badiiy mohiyati, uning inson ruhiyati, axloqiy tanlovi va hayotiy qadriyatlariga ko'rsatgan ta'siri qiyosiy-adabiy tahlil asosida yoritiladi. Mazkur bobning birinchi faslida **“N.Meylarning *“The Naked and the dead”* va Shuhratning *“Shinelli yillar”* asarlarida jamiyat hamda ijtimoiy munosabatlar”** deb nomlanib, unda Ikkinchi jahon urushi haqidagi amerika prozasida xususan, N.Meylarning ilk romani *“The Naked and the Dead”*da urush insonning jismoniy-axloqiy irodasini real, ba'zan naturalistik darajada sinovdan o'tkazadigan maydon sifatida talqin qilinadi. Meyler armiyani jamiyatning ixcham modeli sifatida tasvirlaydi. Turli ijtimoiy qatlamlardan kelgan askarlar bir bo'linma doirasida to'qnashadi. Natijada iyerarxiya, buyruq-bo'ysinish va noteng munosabatlar ularning ruhiyatini emiradi. Serjant Kroft obrazida zo'ravonlik instinkti, general Kammings timsolida esa zo'ravonlikning mafkuraviy-tizimli ko'rinishi jamlanadi. Oddiy askarlar dialoglarida esa tengsizlik, etnik kamsitish, ofitser-askar tafovuti va “odamni resurs sifatida ko'rish” fojeasi aniq seziladi. Shuhratning *“Shinelli yillar”* romani o'zbek xalqining urushdagi ishtirokini, qardosh xalqlar bilan elkama-yelka kurashini realistik ruhda tasvirlaydi. Bu asarda urush zo'ravonlikni oqlovchi emas, balki vijdon va burchni uyg'otuvchi axloqiy sinov sifatida ko'rsatiladi. Roman voqealari xronikal kompozitsiyada Elmurod taqdiri atrofida uyushadi. Elmurod

– odamiylikni asraydigan etakchi sifatida beriladi. Danilchenko obrazi esa talabchan, adolatli, salobatga ega rahbar timsolidir. Uning “salobati” qoʻrquvga emas, ichki hurmat va masʼuliyatga tayanadi. Bu rahbarlik modeli Kammingsnikiga mutlaqo zid. Kammings nazorat va manipulyatsiyaga, Danilchenko esa gʻamxoʻrlik va talabchanlik uygʻunligiga suyanadi. Qiyoslardan koʻrinadiki, Meylerda urush kuch va zoʻravonlik axloqi ustuvor boʻlgan iyerarxik tizimning oʻz-oʻzini fosh etishi tarzida yoritilsa, Shuhratda urush vijdon darsiga aylanadi. Har ikki roman urushni jasorat-gʻalaba dekoratsiyasiga aylantirmaydi. Mualliflar jamiyatdagi shaxs va ijtimoiy tuzum oʻrtasidagi murakkab bogʻliqlikni ochib beradi.

Ushbu bobning ikkinchi fasli ***“N.Meylarning “The Naked and the Dead” va Shuhratning “Shinelli yillar” asarlarida axloqiy dilemmalar hamda qahramonlarning ichki kurashlari”*** haqida boʻlib, unda urush obrazi adabiyotda nafaqat jang manzaralari, balki jamiyat mexanizmlari va shaxsiy axloqiy tanlovlar ochiladigan maydon sifatida xizmat qilishi koʻrsatilgan. Qadim eposlardan tortib to realizm adabiyotiga qadar u qahramonlik va shon-shuhrat yoki insoniylik emirilishi, zoʻravon tuzumlar, ruhiy jarohat va yoʻqotishlar timsoliga aylangan. XX asr prozasida urush xronotopi front va front orti manzaralari oʻrtasida kengayib, okop, orol, shifoxona, lager va kutish-sogʻinch manzaralarini birlashtiradi. Shu fonda N.Meylarning “The Naked and the Dead” hamda Shuhratning “Shinelli yillar” romanlarida urush sharoitida shakllanadigan axloqiy dilemmalar va ichki kurashlarni qiyosiy tahlil qilindi. Badiiy asarda axloqiy dilemmalar vositasida qahramonlar xarakteri va ruhiyati ochib beriladi. Uni tahlil etishdan avval axloqiy dilemma nima ekaniga izoh berib oʻtishimiz lozim. A.Barskiy “Axloqiy dilemma va axloqiy masala oʻrtasidagi farq” nomli tadqiqotida axloqiy dilemma nima degan savolga “Axloqiy dilemma – bu insonni murakkab tanlov oldida qoldiradigan holatdir. Bunday vaziyatda ikki yoki undan ortiq majburiyatlar oʻzaro toʻqnashadi”¹⁸, – deya javob beradi. Dilemma shunday narsaki, unda shaxs teng darajadagi majburiyat (yoki jiddiy oqibatlariga olib boruvchi) ikkita yoʻldan faqat bittasini tanlay oladi. Natijada qaysi yoʻl tanlanmasin, qahramonda ayb, uyat, pushaymon tuygʻulari qoladi. Urush davrida inson oldida koʻp axloqiy tanlovlar (dilemmalar) paydo boʻladi. Eng asosiylari quyidagicha:

1. Buyruqqa boʻysunish yoki vijdon ovozigacha quloq solish – harbiy burch va shaxsiy masʼuliyat oʻrtasidagi tanlov.

2. Hamjihatlik yoki omon qolish – jamoa manfaati uchun fidoyilik qilish va oʻz hayotini saqlab qolish oʻrtasidagi muvozanat.

3. Insonparvarlik yoki zoʻravonlik – ezgulikni saqlash istagi va urush sharoitida kuch ishlatish zarurati.

4. Haqiqat yoki mafkura – adolatga sodiqlik va siyosiy buyruqlarga boʻysunish oʻrtasidagi ichki toʻqnashuv.

Psixologik jihatdan bunday tanlovlar insonda oʻz qadriyatlariga zid ishga

¹⁸ Barsky A. How is an Ethical Dilemma Different from an Ethical Issue? // <https://www.continued.com/social-work/ask-the-experts/ethical-dilemma-different-from-issue-156>

guvoh bo'lish yoki qilish oqibatida vijdon azobi va aybdorlik xissini uyg'otadi. Hayot va o'lim o'rtasidagi qo'rquv – ekzistensial muammolarni kuchaytiradi. Insoniylik va burch o'rtasida tanlov qilishni qiyinlashtiradi. Bularning barchasi kuchli ichki ziddiyatlar tarzida namoyon bo'ladi. N.Meylar asarlarida urushni faqat dekoratsiya sifatida emas, balki insonning ichki olamidagi axloqiy sinovlarga aylanishi haqida yozgan. Shu bois, asar etik tanqid nazariyasi asosida tahlil etilganda, undagi chuqur axloqiy, falsafiy va insonparvarlik g'oyalari yanada yaqqol ochiladi. Axloqiy tanqid (ethical criticism) – bu adabiy asarlarni axloqiy qadriyatlar, insoniy tanlovlar, imyon, javobgarlik va ma'naviy mas'uliyat nuqtayi nazaridan tahlil qiluvchi yondashuvdir. U o'quvchini "yaxshilik va yomonlik" o'rtasidagi kurashga guvoh qilib, badiiy obrazlar orqali axloqiy ongini shakllantirishni maqsad qiladi. Amerikalik adabiyotshunos N.Zenhao o'zining "Introduction to Ethical Literary Criticism" asarida axloqiy tanqidga quyidagicha ta'rif bergan: "Axloqiy adabiy tanqid adabiyotning etik mohiyati va tarbiyaviy funksiyasiga urg'u beradi, shuningdek badiiy matndagi obrazlarning axloqiy tanlovlarini aniqlash orqali jamiyatdagi etik tanlov imkoniyatlarini ochishga harakat qiladi¹⁹". N.Meyler urush fonida insonning ichki axloqiy tanlovlarini ochib beradi. Asarda urush shunchaki tarixiy voqea emas, balki axloqiy laboratoriya, ya'ni odamlarning qalbidagi yovuzlik, rahm-shafqat, hokimiyatga chanqoqlik va insonparvarlik sinovdan o'tadigan maydonidir. "The Naked and the Dead" Meylarning pasifistik ruhdagi asari. U armiyani amerika jamiyatining "ixcham modeli" sifatida tasvir etgan. Amerika adabiyotidan farqli ravishda o'zbek adibi Shuhrat ijodida urush obrazi boshqacha tasvir unsurlaridan foydalangan holda tasvirlangan. Shuhrat urushni zo'ravonlikni oqlovchi hodisa emas, balki axloqiy imtihon sifatida talqin etadi: g'alaba qurol bilan emas, vijdon, birdamlik va odamiylik bilan keladi. Romanning mafkuraviy yadrosi (sovet vatanparvarligi) bor, biroq shaxsiy drammatizm va psixologik jonlilik uni insoniylashtiradi. Meyler qahramonlari tizim va zo'ravonlikka qarshi turishda ko'pincha yakkalanib, axloqiy g'alabani boy beradi. Shuhrat qahramonlari esa burch va insonparvarlikni tanlab, ma'naviy mezonni saqlaydi. Meyler "The Naked and the Dead" asarida skeptik sifatida ko'rinadi. U urush obrazi orqali kuch – zo'ravonlik – o'lim uchburchagini fosh etadi. Uningcha urush qudrat apparatining sovuq mexanikasi. U odamlar ruhiyatini sindiradi. Uning qahramonlari ko'pincha omon qolish instinkti bilan to'qnashadi. Unda qahramonlik mifi demontaj qilinadi Shuhrat esa "Shinelli yillar"da didaktik-tarbiyaviy ohanglar bilan vatanga sadoqat va insoniy burch tushunchasini ulug'laydi. Urush uning uchun axloqiy imtixon va xotira maydoniga aylanadi.

Mazkur bobning uchinchi fasli ***"Amerika hamda o'zbek nasrida urush obrazining badiiy talqini: Meyler va Shuhrat ijodining qiyosiy-poetik jihatlari"*** deb nomlanadi. XX asr adabiyotida urush obrazi inson tabiatini, axloqiy qadriyatlar va jamiyat mexanizmlarini sinovdan o'tkazuvchi keng maydonga

¹⁹ Zhenzhao N. Introduction to Ethical Literary Criticism. – Routledge, 2023. – P. 6-8.

aylandi. Norman Meylarning "The Naked and the Dead" hamda Shuhratning "Shinelli yillar" romanlari shu maydonda ikki xil estetik va mafkuraviy qarashni ifodalaydi: biri urushni shaxs erkinligi va tizim zo'rvonligi to'qnashuvi sifatida ochsa, ikkinchisi uni xalq birdamligi va burch axloqini yuksaltiruvchi sinov sifatida talqin qiladi. Meyler romani polifonik tuzilishi, naturalistik tasviri va modernistik kompozitsiyasi bilan ajralib turadi. Asar "To'lqin", "Loy va qolipchi", "Tuzoq va sharpa", "Maraka" kabi qismlar, shuningdek, ko'p ovozli "Xor" boblari va qahramonlarning o'tmishini ochadigan "Vaqt mashinasi" bloklari orqali yirik kompozitsion sistema yaratadi. Bu "time machine" usuli hozirgi qarorlarning ildizini o'tmishdagi psixogen omillarga bog'lab, har bir qahramonning o'z ovozi va taqdirini aniq tasvirlab beradi. Serjant Kroftning kuchga sig'inish psixologiyasi, general Kammingsning qo'rquvga asoslangan intizom doktrinasi, leytenant Hirnning vijdon va qalb amri bilan yashash pozitsiyasi, Martinez, Goldshteyn, Galager, Minetta, Uilson singari askarlarning ijtimoiy kelib chiqish va ruhiy jarohatlar bilan to'la ichki kurashlari shu tarzda ochiladi. Anopopey oroli – plyaj, okop, o'rmon, Anaka tog'i, lager kabi "yopiq" makonlar zanjiri armiyaning pog'onaviy munosabatlar tizimini ifoda etadi. Unda buyruq yuqoridan pastga qaratiladi, mas'uliyat esa pastdagilarning gardaniga tushadi. Makon toraygan sayin shaxsiy erkinlik kamayadi, buyruq va omon qolish instinkti o'rtasidagi axloqiy dilemmalar keskinlashadi. Yapon asiri bilan bog'liq epizodda avval mehr (suv, shokolad, oilaviy suratni ko'rish) so'ng "harbiy zarurat" niqobi ostida otib tashlanishi urushning qadriyatlar paradoksini, antisemitizm va sinfiy tengsizlik esa tizimdagi axloqiy emirilishlarni ko'rsatadi. Shu tarzda Meyler g'alabani ko'pincha axloqiy mag'lubiyatlar evaziga qozoniladigan hodisa sifatida beradi. Shuhrat "Shinelli yillar"da Amerika adabiyotidan farqli ravishda urush obrazini boshqacha tasvir unsurlaridan foydalangan holda tasvirlagan. O'zbek romanidagi axloqiy dilemmalar qahramonlar ruhiyatida qay tarzda namoyon bo'lgan degan savollar bilan "Shinelli yillar" asarini tahlil qilishga urindik. Bu asar Shuhratning katta prozadagi ilk izlanishlari, ayni zamonda o'zbek harbiy prozasining ilk namunalaridan biridir. "Asarning biografik material asosiga qurilgani, muallifning o'zi shohid bo'lgan voqea va holatlar, o'zi ko'rgan, tanigan, elkama-elka turib jang qilgan kishilarni qalamga olishi obrazlarning jonliligini ta'min etgan"²⁰. Shuhrat ijodining ilk davrlarida nazmda ijodini boshlagan. Adabiyotshunos U.Normatov "Shuhrat hayotda ko'p narsa ko'rdi, xususan, harbiy xizmat, sermashaqqat jang uning uchun katta maktab bo'ldi, u boy hayotiy tajriba to'pladi. Endi ularni ifodalash uchun shoirga she'riyat torlik qilib qoldi; "she'riyatga sig'may ketib" nasrga ham murojaat eta boshladi"²¹. Zotan, Shuhrat prozadagi ilk mashqini jangdan qaytgandan keyin boshlagan. Dastlab frontda ko'rganlarini, boshdan kechirganlarini yozish fikriga tushadi, lekin u mo'ljaldagidan kengayib, yurik romanga aylanadi va oradan o'n besh yil vaqt

²⁰ Rizayev Sh. Men tirikman, to olamda so'zim bor // <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shuhrat-rizayev-men-tirikmanto-olamda-sozim-bor.html>

²¹ Normatov U. Фаол гуманизм // Ўзбек жангномаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977. – Б. 185.

o'tgach "Shinelli yillar" yuzaga keladi. Shuhratning ushbu romanida vatanparvarlik va insoniy mas'uliyat tuyg'ulari Elmurod obrazining ichki dinamikasi orqali ko'rsatib beradi. Romanning yozilishidan Shuhratning asosiy maqsadi o'zbek xalqining Ulug' Vatan urushidagi ishtirokini badiiy tarzda ko'rsatish edi. Shuhrat ijodini monografik planda o'rgangan olim N. Soatova ushbu roman haqida shunday yozadi: "Shuhrat "Shinelli yillar" romanida 1941-1945-yillardagi urush voqealari, xalqimizning mardligi, bosqinchi yovga qarshi birdamlikda qahramonona kurashib, g'alabaga erishishga hissa qo'shganini real tasvirlab bergan. Romanda voqelikni "yurgizish" manerasi o'ziga xos bo'lib, bu asarning badiiy qimmatini oshirgan. Mazkur holat asarning kompozitsion tuzilishida markazda turuvchi – Elmurodning hayot yo'li, axloqiy qiyofasi, ma'naviy dunyosi, kechinmalari va boshqa tipik xususiyatlar dushmanga qarshi kurashda, do'stlariga bo'lgan munosabatlarida, og'ir va dahshatli damlarda birma-bir ochilib boradi. Elmurod Vatan urushida matonat va qahramonlik ko'rsatgan jangchining tipik vakili sifatida kitobxon ko'z o'ngida gavdalanadi"²². Chindan ham urush yillarida o'zbek xalqida vatanparvarlik, xalqaro hamjihatlik hissi kuchaydi. Bu holat adabiyotda urushning milliy g'ururni ifoda etuvchi vosita sifatida namoyon etdi. "Shinelli yillar" asari roman – xronika sifatida urush fojeasining minglab taqdir larni o'zgartirib yuborganini hikoya qiladi. Unda Elmurod obrazi kompozitsion markaz bo'lib, voqealar urush boshidan oxirigacha uning tevaragida uyushadi va uning nigohi, sarguzashtlari orqali beriladi. O'zbek adabiyotida urush mavzusida yaratilgan boshqa asarlar kabi "Shinelli yillar" romanida ham adabiyotning vazifasi xalqning fashizmga qarshi kurashdagi ulushini hujjatli-hikoyaviy shaklda mustahkamlash deb qaraladi. Asar sho'ro tuzumi davrida yaratilgani uchun milliy g'urur iborasi bilan sovet vatanparvarligi tushunchasi yonma-yon keladi. Romanning mafkuraviy yadrosi ham mana shunda. Elmurod shaxsiy qismati bilan birga safdoshlari oldida burchli ekanini yozuvchi bir lahza ham ko'zdan qochirmaydi. Bu erda Meyler qahramonlari singari individualizmni emas, qahramon taqdiri jamoa ta'siri orqali ochilishini kuzatish mumkin. Roman-xronikaga xoslik voqealarning ketma-ketligi va urushning turli etaplarini qamrab olishga xizmat qiladi. Roman kompozitsion markazi Elmurod va urush obrazlaridir. Qolgan personajlar va hodisalar ularga aloqador holda beriladi. Bu usul romanda mantiqiy bog'lanishni kuchaytiradi. Elmurod front hayotining ko'lamini ko'rsatish uchun tayanch vazifasini bajaradi. U orqali fidoyilik, hamjihatlik, mashaqqatga bardosh kabi qadriyatlar ulug'lanadi. Romanning ideologik vazifasi kuchli bo'lsa-da, Elmurodning uzun yo'li (sarguzashtlar chizig'i) inson ruhi evolyutsiyani ko'rsatish imkonini beradi. "Shinelli yillar" adabiyotshunoslar tomonidan jang ko'rgan yozuvchining qalamiga mansub deya ko'p bora ta'kidlangan. Yozuvchi romanda Elmuroddan tashqari bir qator erkin xarakterlar yaratishga muvaffaq bo'lgan. Adabiyotshunos A. Rasulov roman qahramonlarining shakllanishini

²² Soatova N. Shuhrat ijodining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. – Toshkent: AVNESHINVESTPROM, 2023. – B. 135.

syujet bilan bog'laydi: "Shuhrat romanidagi masalalar syujet chiziqlari bilan uzviy bog'liq. "Shinelliy yillar" ko'p planli, bir necha syujet liniyalariga ega asar. Masalan, Anna Ivanovna va Turdiyev munosabatlari asardagi jiddiy yo'nalishlardan biri. Murzin bilan bog'liq voqealar ham o'z yo'nalishi va murakkabliklariga ega. Danilchenko, Dubenko taqdiri bilan bog'liq yo'nalishlar, Grigoriy Bondarning ayanchli taqdiri, Rashid hamda Muharram oilasi masalasi va boshqalar asarning asosiy syujet yo'nalishi – Elmurod xarakterining shakllanishi bilan ulanib ketadi. Murzin va Anna Ivanovnaga bog'liq yo'nalishlar ham asosiy syujet chizig'iga kelib bog'lanadi. Syujet – bu asarning "skeleti", xarakter tarixi, uning o'sishi, shakllanishi va kurash yo'li. To'laqonli xarakterlarsiz epik asarni tasavvur qilish mumkin emas. Xalq hayotidagi muhim davrni keng aks ettirgan "Shinelliy yillar" romanida xarakter yaratish masalasiga katta e'tibor berilgan. Xarakterning namoyon bo'lishidagi muhim omillardan biri – ijtimoiy muhitni ishonarli tasvirlashdir. Shuhrat romanida bu muhit keng va to'laqonli tasvirlangan²³". Chindan ham, asar syujetini shu tarzda tashkillanishi vatanparvarlik g'oyasi ifodasiga ham xizmat qilgan. Romanda dushmanni yurtidan quvishdan tashqari boshqa yurtlarni ozod etish motivi ham beriladi. Muallif Elmurod va yana bir qator obrazlar orqali psixologik jonlilikni saqlab qoladi. Muallif Elmurod obrazini allaqachon shakllangan, tayyor qahramon sifatida asarga kiritadi.

Norman Meyler ham, Shuhrat ham asarlarida urushni faqat jang manzaralari yoki qahramonlik epopeyasi sifatida emas, balki inson va jamiyat uchun axloqiy sinov maydoni sifatida talqin qiladilar. Har ikkala yozuvchi ham haqiqatgo'y va realizmga sodiq. Voqealar to'qima emas, balki hayotiy asosga ega. N.Meyler ham, Shuhrat ham urush ishtirokchisi. Urushning inson ruhiyatiga ta'siri, qo'rquv, shubha, iztirob va ichki qarama-qarshiliklarni real hayotda guvohiga aylangan. Shu bois asarda inson xakteri va ularning psixologik kechinmalari hayotiy tasvirlanadi. Bu badiiy tasvirda ularning ijodiy yondashuvida umumiy jihatlar borligini ko'rsatadi. Shuningdek, ularning rivoya uslubida ham tanqidiy ruh yaqqol ko'rinadi. Norman Meylarning "The Naked and the Dead" asarida urush obrazining markazida shaxs erkinligi va axloqiy tanlov masalasi turadi. General Kammingsning diktaturasi, leytenant Hirning vijdoni, serjant Kroftning shafqatsiz harakatlari, Minettaning qo'rqqoligi – bularning barchasi urushni inson erki va tizim o'rtasidagi ziddiyat sifatida ko'rsatadi. Meyler uchun urushdagi tashqi g'alaba ko'pincha axloqiy mag'lubiyat evaziga keladi. Shu bois uning estetik qarashlarida shaxsiy erkinlik va vijdonning sinishi markazda turadi. Shuhratning "Shinelliy yillar" asarida esa urush obrazi xalqning birligi va vatan oldidagi burchni ado etishi orqali tasvirlanadi. Elmurod obrazida axloqiy mezon mujassam: u shaxsiy adovatni unutib, do'stini qutqaradi. Shaxsiy fojialar fonida ham burchni ustun qo'yadi. Bondarning tavbasi, Murzinning mansabparastlikdan halokatga yuz tutishi, Mastura/Anna va Zebo hikoyalari orqali urushning shaxslardagi

²³ Расулов А. Шинелда шаклланган характерлар // Ўзбек жангномаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977. – Б. 247.

yo'qotishlari ko'rsatiladi. Lekin ular ma'nosiz fojia sifatida emas, balki xalq xotirasi va axloqiy tiklanishning bir bo'lagi sifatida ramklanadi. Shuhratda urushdagi g'alaba faqat siyosiy emas, balki axloqiy yutuq tarzida beriladi.

XULOSA

1. Urush obrazi tushunchasi shunchaki jang manzaralarini tasviri bilan cheklanmay, balki insonning ichki olami, axloqiy tanlovi va jamiyatdagi o'rnini yorituvchi ko'p qatlamli badiiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi, shuningdek, urush obrazining psixologik, axloqiy va ijtimoiy yondashuvlar asosida talqin qilinishi uning murakkab madaniy kategoriya sifatidagi ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

2. XX asr jahon adabiyotida urush obrazi avvalgi davrlarga xos romantik va qahramonlik talqinlaridan keskin chekingan holda, tasvirlarda insonning ruhiy iztiroblari, ma'naviy tanazzuli, ongdagi parchalanish va jamiyatning axloqiy inqirozini markazga qo'ygan estetik hodisaga aylandi. Mazkur davr adabiyotida urush obrazi ko'p qatlamli estetik kategoriya sifatida shakllanib, uning tasviri yozuvchi dunyoqarashi, madaniy kontekst va falsafiy estetik qarashlarga bog'liq holda yanada murakkab semantik tartibga ega.

3. Amerika va o'zbek adabiyotida urush obrazining talqini milliy adabiy jarayonlarning tarixiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatgan badiiy-estetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Amerika adabiyotida urush shaxs ruhiyatidagi iztirob, davlat mafkurasiga tanqidiy munosabat va jamiyatning axloqiy izlanishlarini yorituvchi mazmun darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, o'zbek adabiyotida u milliy xotira, ma'naviy bardosh va xalqning ijtimoiy birlashuvini ifodalovchi tarixiy-badiiy model sifatida shakllangan. Shu tariqa, har ikki adabiyotda urush obrazi milliy tafakkur, jamiyat ongidagi o'zgarishlar va tarixiy tajribaning badiiy talqinini aniqlovchi muhim omil sifatida tarixiy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

4. Norman Meyler ijodida urush hodisasi insoniyatning axloqiy sinovi sifatida talqin qilinib, jangovar voqelikdan ko'ra insonning vijdoni, mas'uliyati va ma'naviy tanlovi markazga chiqariladi. Yozuvchi urushni shaxsning ichki ziddiyatlarini keskinlashtiruvchi, axloqiy mezonlarni qayta belgilovchi, kuch va zo'ravonlik mohiyatini fosh etuvchi murakkab hodisa sifatida ko'rsatadi. Meyler qahramonlarining psixologik parchalanishi, vijdon azobi va ma'naviy izlanishlari orqali urushning insoniylikka solgan bosimi badiiy-falsafiy tahlil darajasiga ko'tariladi. Natijada uning asarlarida urush jamiyat va shaxs o'rtasidagi axloqiy mas'uliyatni sinovdan o'tkazadigan universal kategoriya sifatida shakllanadi.

5. Shuhrat ijodida urush, avvalo, xalqning ma'naviy bardoshi, fidoyiligi va Vatanga sadoqatini yorituvchi badiiy mazmun shakli sifatida talqin etiladi. Yozuvchi urush voqealarini shaxsiy jasorat emas, balki millatning birlashuvi, front va front ortidagi mashaqqatli mehnatning ma'naviy qiymati orqali ochib beradi. Qahramonlarning matonati, fidoyiligi va mas'uliyati urushni

vatanparvarlik ruhining eng yorqin ifodasiga aylantiradi. Shu tarzda Shuhrat asarlarida urush milliy g'urur, ezgu qadriyatlarni himoya qilish va xalqning tarixiy xotirasini mustahkamlovchi badiiy-estetik model sifatidagi ahamiyati beqiyos.

6. N.Meyler va Shuhrat asarlarida realizm asosiy badiiy yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Ichki monolog, psixologik portret, psixologik konflikt yordamida qahramonlarning ruhiy holati chuqur ochiladi. Har ikki muallifning poetik uslubida psixologik tahlil ustuvorligi ko'zga tashlanadi. Qahramonlarning ichki dunyosi tashqi voqelik bilan sinxron tarzda talqin qilinadi. Meyler ijodida ekzistensializm, polifoniya, travmatik ong oqimi, Shuhratda esa psixologizm, ma'naviy burch va milliy ruhning badiiy-estetik ifodasi asosiy tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Shu tariqa, har ikki muallif urush obrazini inson psixologiyasi, shaxsiy va milliy ma'suliyat hamda ma'naviy qadriyatlar orqali murakkab badiiy-falsafiy fenomen sifatida shakllantiradi.

7. N.Meylarning "The Naked and the Dead" va Shuhratning "Shinelli yillar" romanlarida urush obrazini o'rganish besh asosiy kategoriya – rahbar hamda askar munosabati, individ va tizim ziddiyati, ijtimoiy tabaqalanish, etnik-irqiy munosabatlar va ayollarga munosabat – orqali amalga oshirilgan. Natijada, rahbar va askar munosabatlari har ikki asarda hokimiyat hamda mas'uliyat dinamikasini ochib beradi; individ va tizim ziddiyati shaxsning urushdagi mavqeini hamda qaror qabul qilishdagi cheklovlarini namoyon qiladi; ijtimoiy tabaqalanish va etnik-irqiy farqlanish jamiyatdagi adolatsizlik hamda noinsoniylikni ko'rsatadi; ayollarga munosabat esa jamiyatning gender tuzilmasi va urush ta'sirini yoritadi. Shu asosda, har ikki asar urushni nafaqat jang maydonidagi voqelik, balki ijtimoiy tizimning ichki mexanizmlarini aks ettiruvchi murakkab badiiy voqea sifatida namoyon bo'lishi kuzatildi.

8. N.Meyler va Shuhrat urushni qahramonlarning axloqiy dilemmalari hamda ichki kurashlari orqali yoritadi. Meylarning qahramonlari buyruq, hamjihatlik va harbiy zarurat bilan insoniy qadriyatlar – vijdon, rahm-shafqat, do'stlik – o'rtasida to'qnashib, ko'pincha tirik qolish instinkti bilan axloqiy g'alabani boy beradi. Shuhrat qahramonlari esa burch, hamjihatlik va insonparvarlikni tanlab, vijdon va ma'naviy mezonni saqlaydi; ba'zida zo'rvonlik orqali ham adolat va jamoa manfaatini himoya qiladi. Natijada, har ikki asar urushni insonning ichki kurashi va axloqiy tanlovlari orqali ochib beradi: Meyler degumanizatsiya hamda ruhiy ezilish xavfini fosh etsa, Shuhrat insoniylik, vijdon va ma'naviy yuksalishni ta'kidlaydi. Shu bilan urush har ikkala yozuvchida insonning axloqiy laboratoriyasi sifatida talqin qilinadi.

9. Har ikkala yozuvchi urushni realistik tasvir va inson ruhiyatining chuqur ochilishi orqali yoritadi. Qahramonlar ichki kurash, axloqiy dilemmalar va qo'rquv – g'azab – jasorat dinamikasi orqali urushning inson hayotiga ta'sirini namoyon qiladi. Shunga qaramasdan, Meyler shaxs erkinligi, vijdon va tizim ziddiyatini ko'rsatib, urushni insonni sindiruvchi "tizim mashinasi" sifatida talqin qiladi; uning qahramonlari ko'pincha tirik qolish instinkti bilan

axloqiy g'alabani boy beradi. Shuhrat esa urushni xalq birdamligi, burch va vatanparvarlik orqali insoniy qadriyatlarni sinovdan o'tkazuvchi maydon sifatida tasvirlaydi; qahramonlar adolat, jamoa va insonparvarlikni birlashtirib, ruhiy va ma'naviy yuksalishga erishadi.

10. Urush obrazining ikki milliy adabiyotdagi funksiyasi qiyosiy-tipologik metod asosida tahlil etilib, Meyler va Shuhrat ijodi ushbu obraz semantikasining ikki turli estetik tafakkurda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Har ikki adib idioshtilining o'ziga xos poetik jihatlari ham buni tasdiqlaydi: Meyler asarlarida chiziqsiz vaqt (Time machine), ko'p qatlamli jargon, murakkab metaforika va ironiyaning faol qo'llanishi qahramon ruhiyatidagi ichki ziddiyatlarni ochib bersa, Shuhrat nasrida xalqona poetik vositalar, parallelizm va milliy ramzlar qahramonning ma'naviy etilishi hamda axloqiy pozitsiyasini yoritishga xizmat qiladi. Shu tariqa, ikki adibning estetik individual uslubi urush obraziga turlicha ma'no yuklab, milliy adabiyotlar doirasida mazmuniy va uslubiy tafovutlarni yaqqol namoyon etadi.

11. Kelajakda urush obrazi haqidagi ilmiy izlanishlarni davom ettirish, xususan boshqa turli adabiyotlarda urush obrazini qiyosiy jihatdan tahlilga tortish, tarjima masalalari orqali uning badiiy va madaniy xususiyatlarini o'rganish, ayol yozuvchilarning urush haqidagi asarlari va qahramonlaridagi axloqiy dilemmalarni tahlil qilish imkonini beradi.

**SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.03/2025.27.12.Fil.01.11 AT NATIONAL UNIVERSITY
OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO**

NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

SUYUNOVA MAFTUNA DO'SQOBIL QIZI

**LITERARY INTERPRETATION OF THE WAR IMAGE IN AMERICAN AND
UZBEK PROSE (ON THE BASIS OF N. MAILER AND SHUHRAT'S WORKS)**

**10.00.06 – Comparative study of Literature, Contrastive Linguistics and Translation
studies**

ABSTRACT
of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) on Philological sciences

Tashkent – 2026

The theme of the dissertation for Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences was registered at the Supreme Attestation Commission under Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number № B2024.1.PhD/Fi4409.

The doctoral thesis has been carried out at the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) is placed on the website of Scientific council (www.nuu.mb.uz) and the website of «ZiyoNET» Information and Educational portal (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor:	Umarova Maxliyo Yunusovna Doctor of Philological Sciences, Professor
Official opponents:	Pardayeva Zulfiya Jurayevna Doctor of Philological Sciences, Professor Kasimova Ra'no Raxmatulloyevna Doctor of Philological Sciences, Associate Professor
Leading organization:	Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek language and literature

The defense of the dissertation will take place on «05» May, 2026 at 16:00 o'clock at the meeting of the Scientific council awarding scientific degree DSc.03/2025.27.12.Fil.01.11 at National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek. Address: 100174, Tashkent city, Farabi street, 400. Phone. (+99871) 246-08-62; Fax: (+99871) 246-65-24; e-mail: nauka@nuu.uz.

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Center of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (registered under the number 84). Address: 100174, Tashkent city, University street, 4. Phone: (+99871) 246-02-24

The abstract of the dissertation was distributed on «22» April 2026.
(Protocol at the registered № 9 on «22» April 2026).

I.A.Siddikova

Chairperson of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

M.G.Rabiyeva

Scientific Secretary of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Associate Professor

S.E.Kamilova

Chairperson of the Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degrees,

Doctor of Philological Sciences,
Professor

INTRODUCTION (abstract of PhD dissertation)

Topicality and relevance of the research. In world literary studies, the exploration of the image of war has long been recognized as an important scholarly problem. In recent decades, major approaches within global humanitarian discourse have increasingly shifted from heroic narratives toward the artistic analysis of human memory, psychological trauma, moral-ethical dilemmas, and dehumanizing systems. In the context of ongoing armed conflicts and hostilities across various regions of the world, the role of literature in portraying the tragedies of war through the lens of human values has gained renewed significance. This research is particularly relevant as it examines the poetics of the war image in the works of the American writer Norman Mailer and the Uzbek author Shuhrat, focusing on the artistic mechanisms through which they depict the complex psychological and social condition of humanity under wartime circumstances.

A comparative study of the artistic interpretations of war reveals both the universal and traditional features of world literature. Examining war not merely as a plot theme but as a complex image that shapes the entire composition of a literary work significantly expands the possibilities for its social, psychological and philosophical analysis. Despite the extensive research devoted to the themes of war and its consequences, there is still insufficient systematic comparative analysis of the similarities and differences in the artistic interpretation of war in the military prose of N. Mailer and Shuhrat – particularly in terms of their methods of depicting characters', moral-ethical dilemmas and psychological states, as well as the diachronic reception and interpretation of war-related themes. This study aims to fill this research gap and holds both theoretical and practical significance for the field of comparative literary studies.

In recent years, our country has undertaken systematic efforts to develop education, culture, art and literature, as well as to cultivate in the younger generation a strong commitment to the ideals of peace and humanism. In an age of globalization, when individuals are increasingly exposed to aggressive content and various forms of manipulation, the comparative study of literary works that reveal the horrifying realities of war and promote the values of peace and humanism carries significant moral and educational importance. As the President of our Republic has emphasized, "The Second World War – the most terrible massacre in human history – brought a lot of suffering, tragedy, and loss to all nations, including our people, and it will never be forgotten."¹ In our country, which aspires to occupy a worthy place on the international stage, studying the works of N. Mailer and Shuhrat that reveal the essence of war is of great

¹ Mirziyoyev Sh. O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi. <https://president.uz/uz/lists/view/8117>. [Date of acces: 8.05.2025]

importance in educating individuals who consider peace on Earth as the highest blessing. Although significant work has been done in this area, American and Uzbek military prose of the 20th century have not been systematically studied from a comparative perspective, and a comparative analysis of their interactions, parallels, and differences has not been sufficiently developed. This research expands the repertoire of studies in comparative literature by examining the approach of authors with two different worldviews to a universal theme, their artistic depiction of the tragedies of war, and by exploring from a new angle the composition of works centered around the image of war, as well as the creative style and skill of N. Mailer and Shuhrat in their respective works. The dissertation serves to the implementation of the tasks specified in the Order of the President OP-3271 dated September 13, 2017 "On a comprehensive program of measures to develop the system of publishing and distributing books, to enhance and promote reading culture", The Order of the Cabinet of Ministers No.376 dated May 18, 2018, Decree of the President of the Republic of Uzbekistan DP-5847 dated October 8, 2019 "On approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030", the Decree of the President DP-6097 dated October 29, 2020 "On approval of the Concept for the Development of Science in the Republic of Uzbekistan until 2030", the Decree of the President DP-5117 dated May 19, 2021 "On measures to bring the popularization of foreign language learning in Uzbekistan to a qualitatively new level", the Decree of the President DP-60 dated January 28, 2022 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026", "On measures to improve the system of translating and publishing the best examples of world literature into Uzbek and masterpieces of Uzbek literature into foreign languages", The President's speech dated December 22, 2023, titled "Spirituality must move ahead of all other spheres, becoming a new force and a new movement" and other regulatory legal acts related to this activity.

Relevance of the topic to the priority areas of scientific research in the Republic. The present research work was conducted in the following trend of development of science and technology of the Republic of Uzbekistan: 1. "Establishing and realization of innovative ideas in social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of informative society and democratic state."

The degree of the study of the problem. There are numerous works written about the Second World War in both world and Uzbek literary studies. Many articles and research papers have been devoted to analyzing the theme and image of war in these works, as well as their distinctive features, the inner world of the characters, and their psychological states. In particular, world literary scholars such as A. Huebner, I. Higgins, E. Baker, W. Warren, P.

Lister, L. Campbell, M. Mackey, J. Davies, J. Lennon², as well as Russian literary scholars such as A. N. Nikolyukin, A. S. Mulyarchik, Y. N. Zasurskiy, I. M. Morozov, T. N. Kubaryeva, Ye. Chernetsova, O. Nesmelova, I. Galinskaya, E. Muratova³ have conducted research on the distinctive features of the war theme and image and on the works of N. Mailer.

Similarly, Uzbek literary scholars such as J. Kamol, M. Shaykhzoda, U. Normatov, S. Ahmad, N. Soatova, N. Karimov, S. Mamajonov, B. Nazarov, U. Normatov, A. Rasulov, S. Mirzayev⁴ have studied the life and creative activity of Gulom Alimov (Shuhrat) – a representative of 20th-century Uzbek literature – as well as the literature of the Second World War.

Relevance of the work to government plans and scientific research. The dissertation was carried out in accordance with the plans of scientific research work of the Department of Foreign language and literature within the framework of the scientific direction “The relevant issues, literary analysis, methods and principles of comparative literary studies and translation studies.”.

The aim of the research to identify the artistic and structural mechanisms of creating the image of war in American and Uzbek prose through the analysis of N. Mailer’s “The Naked and The Dead” and Shuhrat’s “The Years in Uniform” (Shinelli yillar) novels.

The tasks of the research work:

² Andrew J. Huebner. The Warrior Image Soldiers in American Culture from the Second World War to the Vietnam Era. – USA: The University of North Carolina Press, 2011. – 371 p.; Ian Higgins. The Second World War in literature: eight essays. – Edinburgh: Scottish Academic Press, 1986. – 148 p.; Emily M. Baker. Nazism, the Second World War and the Holocaust in contemporary Latin American fiction. – UK: Cambridge University Press, 2022. – 193 p.; Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы. – М., 1978 – 328 с.; Paul A. Lister. Thesis, Dissertation, Kansas State University. – England, 1974. – 240 p.; Lawrence Sherwood Campbell. Thesis, Dissertation, English, University of British Columbia, 1975 – 160 p.; Marina Mackay. The Cambridge companion to the literature of World War II. – N.Y.: Cambridge University Press, 2009. – p.56-67.; Dawes, James. The language of war: literature and culture in the U.S. from the Civil War Through World War II. – USA: Harvard university press, 2002. – 321 p.; J. Michael Lennon. Conversations with Norman Mailer. – USA: University press of Mississippi, 1988 – 432 p.

